

XORIJDAGI OILALAR KIMGA MUROJAAT ETADI?

Xorijiga oilangiz bilan ketishga qaror qildingiz. Begona yurt, begona qonunchilik, ish, hamkaslar begona, boshqa tilda so'zlovchi odamlar. Ehtimol siz bu yurt bilan bog'liq barcha ma'lumotlarni bilib yo'iga otlangandirsiz (qaniyi shunday bo'lsa). Yoki (ayniqsa, ayollar) yoningizdagi turmush o'trog'ingizga ishonib yo'iga chiqdingizmi? To'g'ri, u bilan bir necha yil birga yashaysiz, orangizda kelishmovchiliklar bo'igan va ularni o'z yurtingizda qarindosh-urug' ishtirokida hal etib olgandirsiz. Lekin chetda, yaqinlarinidan uzoqda, begona yurda aynan turmush o'trog'ingizdan himoyalani shingiz lozim bo'lib qolsa-chi? Unda nima qilsiz?

Samarqandlik Maryam ismli ayol shunday holga tushdi. Xorijiga borgach, ketma-ket farzandlari bo'ldi, turmush o'trog'i esa bolalarga beriladigan nafaqa hisobiga yashay boshladi. Ishlashni istamas, kun o'tsa bo'ldi, ichkilikka ruju qo'yib, ayoliga qo'l ko'tara boshladi, aroqqa pul topilmasa, uyda halovat yo'qoladigan bo'ldi. Ayol juda uzoq sabr qildi, nima qilsin, boshqa yo'l borligini bilmasdi. Yaxshiyamki, hamyurtlari unga yordam berishi mumkin bo'igan tashkilot borligini aytishdi. Qo'ng'iroq qildi, darhol yetib borishdi, ayolni va farzandlarini ona Vataniga jo'natib yuborishdi.

Umuman, bugun xorijda ishslash uchun ketib, o'sha yerda istiqomat qilayotgan oilalar turli daramadagi muammolarga duch kelib qolganda kimga murojaat etishadi? Bu murojaatning ijrosi qanday?

- Qaysi hududda ishlab, yashashidan qat'i nazar, o'zbekistonlik xotin-qizlar, ularning farzandlari bizning e'tiborimizda, - deydi viloyat hokimi o'rinnbosari, oila va xotin-qizlar qo'mitasi raisi Zebiniso Rahmonova. - To'g'ri, bu masalada tizimli, keng ko'lamli ishlar ketyapti, deb aytolmayman, ammo imkonimiz darajasida ular bilan muloqotni yo'iga qo'yish hamda muammolarini o'rganish bo'yicha ish olib boryapmiz. Misol uchun, shu yil davomida O'zbekistonning Isroildagi favqulodda va muxtor elchisi va boshqa qator hamkor tashkilotlar vakillari ishtirokida Isroilda mehnat qilayotgan xotin-qizlar bilan onlaysen muloqotga kirishdik. Muloqot chog'ida ayollarning O'zbekistonda qolgan farzandlarini to'garashga jaib etish, pensiya, nafaqa kabi masalalar bo'yicha savollariiga atroficha javob berildi. Shuningdek, Rossiya davlatida mehnat qilayotgan oila vakillari bilan viloyat hokimining birlinchi o'rinnbosari va bir qator boshqarmalar rahbarlari ishtirokida onlaysen muloqot ham o'tkazilgan edi. Bu uchrashuvda ham murojaatchilarning muammo va so'rovlar tegishli tashkilotlar yordamida hal etildi, ularga zarur huquqiy tushuncha berildi. Aytish kerakki, xorijdagi oilalarning muammolari ham turlicha, bir davlatda mavjudlari ikkinchisiga to'g'ri kelmaydi.

Keyingi yillarda chet davlatga ishslash uchun borishda aholining savodxonligi, o'z haq-huquqlarini bilgan holda ishga ketishga urinishi quvonarli holdir. Ammo begona yurda turli vaziyat va muammolarga duch kelib qolishdan hech kim himoyalanmagan. Bu masalada ularga yordam beruvchi, doimiy ravishda yangiliklardan boxabar etuvchi tashkilotlar, axborot vositalari mayjud.

Shunday yirik nodavlat tashkilotlardan biri "Istiqloliy avlod" ijtimoiy axborot markazi viloyat bo'limidir. Besh yildan beri faoliyat olib borayotgan mazkur tashkilot inson huquqlari himoyasiga bel bog'lagan bo'lib, juda katta maqsadni ko'zlagan. Shiori ham shunga mutanosib: "Biz inson qadr-qimmati ustun dunyonu bunyod etamiz!". Xo'sh, maqsadlar amallarga mosmi? Markaza qanday ishlar amalga oshirilayti?

- Markazimiz asosan odam savdosining oldini olish, bu jinoyatdan jabrlanganlarga ijtimoiy, psixologik ko'mak berish, noqonuniy migratsiya, oilalardagi zo'ravonlik, yuqumli kasalliklarning oldini olish kabi qator vazifalarni amalga oshirib kelmoqda, - deydi Respublika "Istiqloliy avlod" ijtimoiy axborot markazi viloyat bo'limi rahbari Madina Najmiddinova. - Shu yilning besh oy mobaynida markazning dolzarb aloqa tarmog'iga 543 ta qo'ng'iroq bo'ldi. Murojaatchilarning 353 nafranin erkaklar, 190 nafranin ayollar tashkil qildi. 200 nafr murojaatchiga huquqiy yordam ko'rsatildi. Shu oylar davomida 10 ta ariza qabul qilingan bo'lib, ularning to'rttasi odam savdosidan jabr chekkalar murojaatidir. Uch nafr fuqaroning Vatanga qaytishiga ko'maklashidi, ularning uch nafr Rossiya Federasiyasidan qaytib keldi. Bundan tashqari, odam savdosidan jabr ko'rgan sakkiz nafr fuqaroga loyiha doirasida



huquqiy, psixologik, tibbiy va ijtimoiy yordam ko'rsatildi. Markazning ijtimoiy xodimlari murakkab vaziyatda qolib, qaytib kelgan hamyurtlarni qanday yordam kerakligini o'rganib, xulosalar bergach, tegishli yo'nalishda ko'mak ko'rsatiladi. Ba'zilari o'sha tushkun ruhiy holatdan chiqib ketishi uchun oylab muolajaga muhetoj bo'ladi.

Aytish kerakki, odam savdosini jinoyati statistika bo'yicha kamaygan bo'lsa-da, aslida unday emas. Afsuski, jinoyatchilar uni amalga oshirishda elektron va yana boshqa ko'plab usullardan foydalanoqda. Bir qaraganda odamlar aldovga uchrayapti, ammo uni tasniflashga kelganda afsuski, jabr chekkalar o'z ixtiyori bilan bu ishni amalga oshirmoqdalar. Ya'ni, onununi jihatdan ularga boshqaga jazo choralarini qo'llash mumkin bo'lgan holda odam savdosini jinoyati moddasini qo'llashning imkon yo'q.

Shu nuqtai nazardan aholi o'tasida tushuntirish ishlarini olib boryapmiz. Ichki ishlar idoralari xodimlari bilan hamkorlikda to'rt oy davomida shahar-tuman hududlarida 30 ga yaqin targ'ibot va tashviqot tadbirlari o'tkazildi. Bundan tashqari, hududdy komissiya a'zolari, ichki ishlar idoralari, prokuratura xodimlari ishtirokida "Odam savdosini va majburiy mehnatga qarshi kurashish" mavzusida seminar-treninglar o'tkazildi.

Markaz qoshida +998995299494 raqamli ishchonch telefonini faoliyat ko'rsatib kelmoqda.

Xorijdagi vatandoshlarini yordam berish uchun qariyb har bir davlatda nodavlat notijorat tashkilotlaridan hamkorlarimiz bor. Kelgan murojaatlar shu hamkorlarini yordami bilan ijobji hal etilmoqda. Xorijiga qiyin ahvolda qolgan, ya'ni odam savdosini jinoyatidan jabr chekkani yoki olaadiji zo'ravonlikka duch kelgan yurdoshlarimiz bizga murojaat etish orqali muammolari yechim topishlari mumkin.

Darvoqe, yugorida misol sifatida keltirilgan Maryam ham farzandlari bilan Rossiya davlatidan aynan "Istiqloliy avlod" markazining hamkorlari yordamida yurtimizga qaytdi. Hamon unga ko'mak ko'rsatilmoqda. Bu fikrlar qayta-qayta aytilgan o'sha xulosani beradi: xorijaga chiqishdan aval barcha vaziyatni hisobga oling, qonunchilikdan xabardor bo'lish barobarida o'zingizni himoyalash uchun yetarlicha ma'lumotga ega bo'lib borish eng muhim vazifalardan bo'lib qolmoqda.

Gulruh MO'MINOVА.

BU HAFTА
Viloyat statistika
boshqarmasi ma'lumotiga
ko'ra, 2023-yilning
yanvar-sentabr holatiga
viloyat aholisining umumiylari
daromadlari tarkibida
mehnat faoliyatidan
olangan daromadlar
**56,3 foizni, transfertlardan
olangan daromadlar
34,6 foizni hamda shaxsiy
iste'mol uchun o'zida ishlab
chiqarilgan xizmatlardan
va mol-mulkdan olingan
daromadlar 9,1 foizni
tashkil etdi.**

Birdamlik - muvaffaqiyatlar garovi

Jizmonsoy Kattaqo'rg'on tumanining eng olis va chekka huddida joylashgan mahalla bo'lib, 3500 dan ortiq aholi istiqomat qiladi. To'y-ma'rakalarda, jamoatchilik ishlardida, hasharlarda aholi hamishah hamjihat va bir-biriga yelkadosh.

Mahallada bugungi kunda 4 ta umumiy o'rta ta'lim maktabi va 4 ta xususiy bolalar bog'chasi faoliyat yuritmoqda. Olibav shifokorlik punkti zamonaviy asbob-uskunalar bilan jihozlangan va aholiga sifatli tibbyi xizmat ko'satishtash uchun barcha sharoitlar muhoyo. Ushbu salomatlik maskanining xizmatidan aholi mammun.

O'tgan yil qishlog'imizning 4,5 kilometr yo'li asfalt qilindi.

Guzar oqsosqlari va ko'chaboshilar, ularga ko'maklashayotgan yoshlar ma-

halla obodonchiligi yo'ida ishlamoqda. Xonadonlar holatini o'rganish, tomorqlardan unumli foydalanish, kam ta'minlangan oilalarini qo'llab-quvvatlash, yolg'iz keksalar holdan xabar olish kundalik yumushimizga aylanmoqda.

Bundan tashqari, yoshlarning huquqiy ongini oshirish va huquqburarlarning oldini olish maqsadida turli xil tanlovlardan tadbirlar o'tkazishni yo'lg'a qo'yidik.

Abdisodiq NAMOZOV,
**Kattaqo'rg'on tumani Jizmonsoy
mahallasi raisi.**

Uzum shinnisi qadimdan dasturxonimizda nisholda, sumalak, murabbo kabi tansiq shirinliklar qatorida joy egallab kelgan. Bi-roq uning tarkibi va tibbiyotda qay holatda ishlatalishi to'g'risida gi ma'lumotlar kam. Ko'pchilik uzum shinnisi nima ekanligi, uni qachon, qanday ishlatalishi, foydalı xususiyatlari, ovqatlanish va dorivor maqsadlarda qo'llash usullari haqida bilmaydi.

Uzum shinnisining salomatlikka foydasi bormi?



Uzum shinnisi ko'proq Samarqand, Qashqadaryo va qisman boshqa hududlarda mahalliy aholi tomonidan tayyorlanadi. Shinni uzumning har qanday turidan toza sharbat pishguncha uzoq qaynatish orqali tayyorlanadi. Shinni 2-3 yilgacha sifatini o'zgartirmasdan toza saqlanadi va buzilmaydi, lekin o'ta quyuq bo'ladi. Ushbu mahsulotni emizuvchi ayollar va bir yoshdan oshgan bolalar uchun kalsiy yetishmovchiligidagi oziq-ovqat sifatida tavsya etish mumkin.

Mikroelementlar yetishmasligining oldini olish va ularni tuzatish uchun mahalliy aholi tomonidan kamdan-kam ishlatalidigan uzum shinnisi tarkibidagi makro va mikroelementlarning tarkibi o'rganildi va unda kalsiy, kaly, rux, temir, mis yuqori konsentratsiyalari

borligi aniqlandi. Bu moddalar inson salomatligi uchun xavfsiz hisoblanib, hayot sifatini yaxshilash, kasalliklarni kamaytirish va davolashga imkon beradi. O'tkazilgan tadqiqot natijalariga ko'ra, uzum shinnisi tavsya etilgan me'yorda va SanPin talablariga to'liq javob beradi.

Uzum shinnisi nafaqat bolajalarimizning o'sishi va rivojanishini ta'minlash, balki kattalar uchun ham ovqatlanish uchun tavsya etiladi. Shuningdek, u tiklanish jarayonlarini tezlashtirish, charchoqlarini olish va hayot sifatini yaxshilash uchun xizmat qiladi.

Saydullo RASULOV,
tibbiyot fanlari doktori,
**Xalqaro fan va san'at
akademiyasi muxbir a'zosi.**

REKLAMA, E'ONLAR, BILDIRISHLAR / Gazetamiz haftada uch marta - seshanba, payshanba va shanba kunlari chop etiladi / Gazetada chop etilayotgan reklama va e'lonlar tezkor, samarali va hamyonbop / MUROJAAT UCHUN TELEFON: 66-233-91-56

"SIYOB DEHQON BOZORI" MCHJ TA'SISCHILARI DIQQATIGA!

Samarqand shahridagi "SIYOB DEHQON BOZO-RI" ma'suliyyati cheklangan jamiyatiga ta'sischilarining navbatdan tashqari umumiy yig'ilishi 2023-yil 21-noyabr kuni soat 11:00 da jamiyat ma'muriy binosida o'tkaziladi.

USHBU HISOBOT YIG'ILISHIGA BARCHA TA'SISCHILAR VA QIZIQUVCHI TASHKILOTLAR RAHBARLARI TAKLIF ETILADI.

Yig'ilishda quyidagi masalalar ko'rib chiqiladi:

1. "Korporativ boshqaruvi tizimi yanada takomillashtirishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjalari o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi Qonuni, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 24-martdagagi PQ-101-soni qarori talablaridan kelib chiqib, davlat ishtiroyidagi korxonalarining ta'sis va ichki me'yoriy hujjalari qayd etilgan qonunchilik hujjalari muvofiglashtirish, jumladan, ularga tegishli o'zgartirishlar va qo'shimchalar kiritish masalasi;

2. Jamiyatning "Ijroiya organining rahbarlik lavozimlariga tanlov o'tkazish va nomzodlarni saralash tartibi to'g'risida"gi va "Ijroiya organiga haq to'lash tartibi to'g'risida"gi nizomlarni tasdiqlash.

**Manzil: Samarqand shahri
8-mart ko'chasi, 8-uy.**

DA'VOLAR BO'LSA...

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Yu-supova Dilsura Hasanovna notarial idorasida marhum Uzbekov Fayzi Radjabovichga (2004-yil 31-avgustda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meroz ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merozxo'rlarning Yusupova Dilsura Hasanovna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

**Manzil: Samarqand shahri
O'zbekiston ko'chasi, 35-uy.**

Jomboy tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Azizov Jahongir Ilhomovich notarial idorasida marhum Kadirova Shaklo Naimjonovnaga (2023-yil 17-aprelida vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meroz ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merozxo'rlarning Azizov Jahongir Ilhomovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

**Manzil: Jomboy tumani Abdulla
Qurbanov mahallasi, Saroy ko'chasi.**

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Yusupova Dilsura Hasanovna notarial idorasida marhum Voskanyan Rafael Isosifovichga (2023-yil 19-yanunda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meroz ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merozxo'rlarning Yusupova Dilsura Hasanovna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Abdurahmon Jomiy ko'chasi, 64-uy.

Manzil: Samarqand shahri Abdurahmon Jomiy ko'chasi, 64-uy.

Manzil: Samarqand shahri Abdurahmon Jomiy ko'chasi, 73-uy.

**Manzil: Payariq tumani Chelak
shaharchasi, Istiqlol ko'chasi, 73-uy.**

Manzil: Samarqand shahri Abdurahmon Jomiy ko'chasi, 17-uy.

MO'L-KO'LCHILIKDA, BOY-BADAVLAT YASHASHNI KOHLASAK...

(Davomi. Boshlanishi o'tgan sonlarda).

Iqtisodiy ongning zaifligi mamlakatimizda isrof bo'layotgan, tegishli natija bermay, zoye ketayotgan iqtisodiy imkoniyatlarni sarhisob qilib, umumiy maxraja keltirsak, iqtisodiy bilimdonlik samaralaridan quadratli to'qin paydo bo'lishiga hech qanday shubha yo'q. Ushbu quadratli to'qin davlatning puxta o'yinlangan makroiqtisodiy siyosati bilan o'zaro uyg'unlashib, bir yo'nalish tomon harakat qilsa, xalqimiz orzu qilgan iqtisodiy taraqqiyot mo'jizasi sodir bo'ladи.

Mamlakatda aholi barcha qatlamlari iqtisodiy savodxonligini oshirish, uning iqtisodiy ongi hamda kognitiv iqtisodiy tafakkur yuritish qobiliyatini zamon talablari darajalariga ko'tarish davlat makroiqtisodiy siyosatining markazi bo'g'inlaridan biriga aylanmog'i lozim.

Iqtisodiy ong va iqtisodiy tafakkurni rivojlantirishda ta'limning roli beqiyos. Nima qilmoq kerak?

Zamonaviy axborotlashgan makonda iqtisodiy ongini shakllantrish va uni rivojlantirishda ta'limning roli beqiyos. Aynan ta'lim iqtisodiy ongini shakllantrishning, farovon hayotga erishishning bebaboh omilidir. Ushbu haqiqatini inkor etish, kundalik amaliga otda unga riyoq qilmaslik, iqtisodiy savodxonlikni oshirishga yetarli darajada e'tibor bermaslik, o'z-o'zimizni qoloqlikka, nochor hayotga, iqtisodiy taraqqiyot karvonining oxirgi bo'g'inlarida sudralib yuruvchi mamlakatga aylantirishga mahkum etish bilan barobar. Iqtisodiy muammolarini hal etishda ishtirok etayotgan shaxsnинг ta'lim darajasi, bilimi, iqtisodiy savodxonligi qancha yuqori bo'lsa, uning mamlakat iqtisodiy taraqqiyotiga qo'shayotgan hissasi ham shunchalik ko'p bo'la'di.

Ammo bugungi kunda mamlakatda aholi iqtisodiy ongini zamon talablari darajasiga ko'tarish muammolarini bartaraf etishga yetarli e'tibor berilmayishi, ularni yechishda xato va kamchiliklarga yo'li qo'yilishi.

Keyingi yillarda ingliz tilini mukammal

bilish magistraturaga kirishning asosiy sharti qilib belgilandi: magistraturaga kirishga da'vogarlik qilgan yoshlar ingliz tilini mukammal bilishi, ya'ni maxsusIELTS yoki shunga tenglashtirilgan sertifikatiga ega bo'lishi shart. Ushbu tadbir ta'lim sohasining rivojlanishi, uning sifati oshishi, yoshlarimiz tafakkurining kuchayishiga ijobji ta'sir ko'rsatdimi?

Faraq qilaylik, muayyan oliy o'quv yurtida joriy o'quv yillarda 155 nafar magistraturalarni o'qishga qabul qilish rejalashtirilgan edi, lekin amalda 40 nafar yigit-qiz o'qishga qabul qilindi, xolos. Ushbu hollatning asosiy sababi – talabgorlarda ingliz tilidan mukammal bilimi borligini tasdiqlovchi maxsus hujiyatining talab qilinayotganligi. Bu – modomiki ingliz tilini bilmaysanmi, sen iqtisodchi bo'lishga loyiq emassan, degani. Aslida ham shundaymi? O'yalmizki, kuchli iqtisodchi bo'lish uchun ingliz tilini mukammal bilish shart emas. Ayni paytda kasbiy tayyorligi e'tiborga olinmay, faqat ingliz tilini mukammal bilgani uchungina iqtisod

bo'yicha magistraturaga qabul qilgingan talabgorning kelajakda kuchli, iste'dodli iqtisodchi bo'lib shakllanishi mumkinligiga kafolet berish juda qiyin. Lekin aynan shu vaj bilan bo'ljak potensiali yuqori, iqtidorli nomzod o'rnatilgan taribdagil tanlovdan o'tmay qolib ketgan bo'lishi mumkinligi ham ehtimochil xoli emas.

Bo'ljak olyi ma'lumot iqtisodchining mukammal bilim sohibi bo'lishini istasak, ingliz tilini biliishini uni magistraturaga kirishning emas, balki bitirishining, ya'ni diplom olishining asosiy sharti qilib belgilash ham mumkin. Unda talabgorning magistraturada o'qishi uning ingliz tilini o'rganishi bilan birga parallel tarzda kechadi.

Iqtisodiy sohasi bo'yicha magistraturani bitirgan yoshlar uchun ingliz tilining katta ahamiyatini borligini inkor etmagan holda, birinchi galda, ushbu yo'nalish bo'yicha magistraturaga nomzod tanlashda ularning iqtisodiy savodxonligi, tafakkur qilish qobiliyatini bosh mezon bo'lishi kerakligini ta'kidlamochchimiz.

Iqtisodiy tafakkurni rivojlantirishning imkoniyatlari cheksiz, undan unumli foydalanishimiz zarurat

Iqtisodiy ong iqtisodiy taraqqiyotning poydevori, ustuni bo'lsa, iqtisodiy tafakkur inson iqtisodiy ongini yangi bilim, yangi g'oya, yangi nazariyalari bilan boyitishning, demak, iqtisodiy ongini yangi pog'onalarga ko'tarishning kaliti. Agar iqtisodiy ong barcha insonlarga xos xislat bo'lib, kishilar faqat uning rivojlanishiga darajasi bilan o'zaro bir-biridan farqlansa, iqtisodiy tafakkur bundan farqli o'laroq, faqat ayrim iste'dodli kishilargagina Yaratgan nasib etgan noyob va nodir fazilatdir.

Iqtisodiy tafakkurni iqtisodiy yuksalishning bosh omiliga aylantirishning oddiy formulasi quyidagidan iborat: to'q-farovon hayot kechirish maqsadida ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotga erishish uchun boshqachoq, bugungidan yaxshiroq ishlashimiz kerak. Buning uchun esa oldingidan boshqacha fikrlashtirish, yangicha o'yashimiz, iqtisodiy jarayonlarning tub mohiyatini to'la idrok etishimiz, innovatsiyalarni keng joriy qilishimiz, iqtisodiy ongimizni yanada yuqoriqaror darajalarga ko'tarmog'imiz lozim.

Kishilik jamiyatni iqtisodiy taraqqiyotining jarayonida sodir bo'lgan ushbu voqeijklarning sodir bo'lishiga sabab bo'lgan, insonni yo'qchilik va tabiat oldidagi ojizlik girdobidan xolas etib, uni iqtisodiy mo'l-ko'lchilik va farovon hayotga olib chiqqan quadratli kuch nima? Albatta, insonga Yaratgan in'om etgan anglosh, idrok etish, tahsil qilish, tafakkur yuritish qobiliyatini. Yaratgan insonga bir tomonidan, behisob yer osti va yer ustti tabiylar boyliklarni hadya etdi, ya'ni imkoniyat yaratilish kerak. Ikkinchi tomonidan esa ushbu imkoniyatdan ogilona, unumli foydalanish uchun unga iqtisodiy tafakkurni in'om qildi.

(Davomi kelgusi sonlarda).

Lekin biz yuqorida bayon etilganlarni iqtisodiy tafakkurning inson hayotini faqatgina taraqqiyotning bugungi yuqori cho'qqlariga olib chiqqanlikdagi muhim rolini ochib berish uchun emas, balki uning kishilik jamiyatni porloq kelajagini ta'minlashda hali ro'yoga chiqmagani cheksiz imkoniyatlari ham mavjudligini ta'kidlash uchun bayon qildik.

Ilmu fan kishilik jamiyatni ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotining chegara bilmas omilidir. Bugun inson erishgan iqtisodiy tafakkur, uning evaziga olingan moddiy va ma'naviy boyliklarni kishilik jamiyatni iqtisodiy taraqqiyotning oxirgi nuqtasi emas. Inson iqtisodiy tafakkur ham bepoyon koinot misol cheksizliklari intiladi. Ushbu omil toki yer yuzida inson va uning hayotiy entiyojlari bo'erakan, iqtisodiy taraqqiyotga o'zinginchiligi qolishiga qo'shamaydi.

Lekin bugun bir narsani hech shubhasi aniq aytilish mumkinki, u hech qachon to'xtab golmaydigan uzlusiz jarayon, chunki inson har qanday og'ir vaziyatda ham hayot uning oldiga qo'yan eng murakkab, noordinar iqtisodiy muammoning samarali yechimlarini izlaysdi. Bunga uning yuksak iqtisodiy tafakkuri ishchonli tayanch bo'la'di.

**M.MUHAMMEDOV,
M.PARDAYEV,
iqtisod fanlari doktorlari,
SamSI professorlari.**

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Norqulov Alisher Toshboltayevich notarial idorasida marhum Abdullayev Iskandar Isrofilovichga (2023-yil 18-martda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meroz ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merozxo'rlarning Yusupova Dilsura Hasanovna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Fir-davysi ko'chasi, 95-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Xodjayev Farrux Farkhadovich notarial idorasida marhum Abduraxmon Mad

"SHE'R YOZSAM, MAYSALARGA TIL KIRGAY"

Sunnatilla Jumaqulov Qo'shrabot farzandi, Alloh bergan iste'dodi bor. U ToshDU jurnalistika fakultetini bitir-gach, "Zarafshon"ga ishga keldi va nafaqaga chiqquni-ga qadar matbuotda ishladi. Dolzarb mavzudagi maqo-lalari bilan tilga tushdi.

S.Jumaqulov tug'ma shoir. Uning dastlabki she'rlari va ilk to'plami ham falsafiy mushohadalar-ga boyligi bois e'tirof etilgandi. Iqtidori hamkasbimiz bugun 70 yoshga to'ldi. Biz uni tabarruk yoshi bilan tabriklaymiz hamda yangi she'rlari dan sizlarga havola etamiz.

YER POYTAXTI

Ko'zlarimda chalajon uyuq,
Asablari menden darg'azab.
Illi dunyo soladi qutqu,
Umlarga egovdir asab-
Degan zahot uyg'onar tuyg'u.
Yalpizlarning o'ngida -Vatan.
Do'ppidek gar ko'tarsa g'ulu,
Mening belim toshdek, mustahkam.
Sabr-savob, ajri bir yupanch,
Qadr-odamning bir dunyo haqqi.
Illi dunyo tor kelsa hatto,
Yerning bo'lmas hech vaqt poytaxti.
* * *

Osmanni oy, dedim, boyni boy dedim,
Otsiz qolgan kunim holim voy, dedim.
Topishmoq topolmay, "Qo'r'g'on" boy berdim,
Osoyishta kunim hargiz xush ko'rdim.
Yugurik dunyoda oyni yet ko'rdim.
Tushkun kunlарimda toyni ot ko'rdim.
Oltin qoida bu: kuchlar teng bo'lmas,
Shaxmatli dunyoda o'zim mot ko'rdim.



BAHORLAR BOG'LARDAN QOCHGAN CHIQADIR

(Qamchibek Kenja)

Ko'nglim, bu besh kunlik dunyon unut,
Yolg'onku, haqiqat tildan chiqadir.
Jahonnio bo'rnordan asragay umid,
Ishq sasi, sadosi dildan chiqadir.
Muhabbat qalbingni etsa gar ishg'ol,
Odam Ato yo'lin aylia ixtiyor.
Kolumb qit'asin deb cheksa istig'for,
Berun quyoshi goh Hinddan chiqadir.
Ey, do'st! Bag'rikenglik aylagin shior,
Olamga yuz ochding, ertangrid poydor.
Ilmsiz nokas-la tillashgin hushyor,
Yaxshi gapga ilon indan chiqadir.
Iqlimgir emassan, yalovbardor ham,
Bilda "Al-Jabr" dan tashlanar qadam.
Tilingga erk bersang, tutaver motam,
Zanglagan qilich ham qindan chiqadir.
Istibdod tig'idan kuydi osmonlar,
Zabonim kamstidi ne bir hoqonlar,
Tilimda so'zlashar ahli jahonlar,
Til bilmasang, dunyo izdan chiqadir.



KITOB ZIYOSI

Ko'chalarda kimdir xarob, zor o'tgan,
Kimga dunyo tor, kimdir xor o'tgan.
Xudo bergan kunin yashayotir xalq,
Kimgadir mozorda go'ri tor o'tgan.
Dunyo! Ajab dunyo o'xshashimiz yo'q,
Boylik bisyor erur, kitobimiz yo'q.
Ma'naviyatdan sira gap ochma, oxun,
Ko'r ko'zni ochar xitobimiz yo'q.

DARD

Sen suygan hayot - bu og'riqli dunyo,
Yelpig'ich opichlab o'tadi kunlar.
Odamzod hirsiga o'ch, o'ta mahliyo,
Ishrat desalar gar, sho'ng'ir odamlar.
Orzu ushalmasa, yig'lolmasang gar,
Yurak chilparchindir yetim boladek.
Umrning har lahzasi chekadir ozor,
Darding qarib borar go'yo bevadek.



QALDIRG'OCH

Qaldirg'och uchsa gar, xush ko'rdim,
Otam-onamni-da tush ko'rdim.
Men nechun pinxona yig'lab yashadim,
Dunyon qaldirg'ochdan ko'p ko'rdim.
Yig'lamoq og'udir, ruhiyat qo'zg'almas,
Jismga jon balki har soniya o'zgarmas.
Qaldirg'och, seni o'zimga o'xshadim,
Yaxshilik ortidan so'ng yomonlik bo'iganmas.
Qaldirg'och uchsa, osmonda oy bo'ladi,
Ergash o'lan aytsa, kimdir boy bo'ladi.
Men dunyoni o'zgartmadim, o'zdan kechdim,
Jilg'a o'sib, asta sekin soy bo'ladi.

Sunnatilla JUMAQULOV.

ADIBLAR VA KITOBLAR

Mashhur rus masalchisi Ivan Krilov beshta xorijiy tilni o'z ona tiliday bilgan, skripkani mohirona chala olgan. Bundan tashqari, u mechkaylik (ochhofatlik)da ham nom qozongan. Zamondoshlarining so'ziga qaraganda, bir o'tirishda besh-oti porsiya turli taomlarni paqqos tushirai ekan.

Mixail Bulgakovning "Usta va Margarita" romani yozilishiiga Aleksandr Chayanovning "Venediktov yoxud hayotimdagи unutilmas voqealar" qissasi turki bergan. Ushbu asarda ham qissa qahramoni sevgilisini iblis vasvasasidan xalos etadi.

Sho'ro senzurasi bolalar shoiri Korney Chukovskiy she'rlarini qattiq nazorat ostiga olgan. Adibning xotirlashi-chi, "Pashshaxonning to'yi" asarida-gi surat uchun kitob chop etilishidan to'xtatib qo'yilgan. Senzorlarning fikriga ko'ra, undagi pashsha bilan o'rgimchaking juda yaqin tasvirlangan bolalarda shahvoni yutg'ularning uyg'onishiga sabab bo'lar emish.

Aleksandr Dyumaning "Uch mush-ketyor" asarida Atosning xizmatkorini Grimo romanga qalam haqini ko'paytirish maqsadida kiritilgan. U juda kamgap bo'lib, savollarga faqat "ha" yoki "yo'q" deb javob bergan va satrilar sonini ko'paytirgan. O'sha davrda asar gonorari satrilar soniga qarab to'lanar ekan.

Xuddi shunday bir holatni mashhur o'zbek bolalar shoiri Tursunboy Adash-boyev ham hikoya qilib bera bora edi.

O'zbek sho'ro shoirlаридан биро qalam haqini ko'paytirish maqsadida she'r misralarini ataylab, sindirib-sindirib, nashr qildirai ekan. Lekin ustoz bizga uning kimligini aytmagan.

Ingliz shoiri Bayron jonivorlarni juda yaxshi ko'rardи. Kembrijda o'qir ekan, talabalar yotoqxonasida it va mushuk saqlash man etilgani bois u ayiqcha boqib oldi. Qoidada ko'sratilmanan uchun yotoqxona ma'murlari uning ayiqcha boqishiga monelik qilolmadilar. Bayron hayoti davomida tulki, bo'siq, turna, burgut va hatto timsoh ham boqqan edi.


Rus adabiyotidagi eng uzun sarlavhalı she'r Gavriil Derjavinning "Iste'fodagi serjantga, dvoryanin du-masining nusxachisiga, arxivsiz arxivchiga, mulksiz boshqaruvchiga va didsiz shoirga qishki inoyatlar tilash" nomli she'ridir.

"Shamollarda qolgan hislarim" romani Margaret Mitchellning yagona asaridir. Bu roman uning jurnalistikani tark etib, uy bekasi bo'lgani oraliq'idagi yillarda yozilgan.

S.Yesenin militsiya xodimlari ni yoqtirmasa ham, melisaxonalarda tez-tez "mehmon" bo'lib turardi. Odatiy mayxo'rliklardan so'ng shoir ishtirotida, albatta, janjal chiqar, mushlashuv bilan tugar va u bo'linmaga olib borilardi. Biroq biror marta ham ish sudgacha yetib bor-madi. Bunga sabab shoirning shuhrati va tanish-bilishlarining ko'pligida edi.

To'plovchi: Xudoyerberdi KOMILOV.

ISSN-201667X



Saytimizga o'tish uchun QR-kodini telefoningiz orqali skanner qiling

Sotuvda narxi kelishilgan holda

"Ko'nglim"

Kubarro opadan hatto talabaligidan shoirlari devoriy gazetaga so'rab olishhardi. Bunday kamtarlik ulg'ayganida ham u kishini tark etmadni, tahririylarda ishlagnida o'zidan ko'ra ko'proq ijodkor singillari, ukalari mashqlarini berishga intildi. Mening ijodimga ham ana shunday g'amo'x'lik qilganlar. Hozirda ham har bir kitobimga, albatta, munosabat bildiradi. Ustozimiz Hamida Karimova so'zboshida "Kubarroni shaxsan mening o'zim ham dilrabo, ya'ni o'ziga tortadigan, yoqimli insonday qabul qilaman. Bu narsa uning she'riyatga munosabatida ham muhim", deganida yuz karra haqidir.

K.Bahromovaning "Sahhof" nashriyotida chop etilgan "Ko'nglim" to'plamidagi she'rlar bu fikrlar isboti-dir. Ularda ayloning mehribon qalbidan tashqari yuksak insoniy fazilatlar sharhi o'rin olgan. Muallif quvongan, tashvishli odamga ham bir xil munosabatda bo'la-di, hayotga teran qarashga undaydi, salmoqli xulosalar chiqaradi:

Mayli, dunyo bo'lsin biri kam,
Qo'llab turgin ey, Hayot - onam!

Kullas, Kubarro opaning sakizinchini kitobi hani sizni befarq qoldirmaydi, o'qib, bahra olasiz. Muallifga esa ijoddha jo'shqinlik va oqilalik hamisha hamroh bo'lishini istaymiz.

Farmon TOSHEV.



Kech ochilgan ko'z

Asli ismi Taniqul. Dangasa, bir joyda yolchitib ishlamagani bois "Tanbal" degan laqab ortirgan. Qo'lida gulday hunari bor, traktor haydashi, temir-tersak payvandlashi mumkin. Ammo peshonasi terlab, qo'li qadoq bo'lib mehnat qilishga bo'yini yor bermaydi. Otasi Hoshim buvaning yoshi bir joyga borib qolgan, ertaga egasiga omonatini topshirib dunyodan o'tsa, Taniqulning holi ne kechadi? Pand-nasihat kor qilmasa, tog'ni ursa, tolqon qiladigan yigit eldan uyalmasa, hademay o'g'illari ulg'ayib, otasiga o'xshab tikka kosov bo'lib qolmasligiga kim kafolat beradi?

Ota shu xayollar bilan Temir fer-merning oldiga bordi: "Zora biror ish bersa, yo'lg'a salsa". Fermer Hoshim buvani iliq kutib oldi. Buvaga hurmati baland, otasi rahmatlik bilan qal'in do'st bo'lib, bir zamonlar kolxonozning og'ir yukini ko'tarib, yelkalari yag'ir bo'igan Hoshim buvani ko'rsa, otasini ko'rgandy bo'ladi.

- Agar ishlayman desa, mayli, - dedi Temir fermer. - Katta oylik, oson ish va'da qilolmayman, lekin mehnati-ga yarasha quruq ham qo'ymayman. Traktor haydab, g'o'za qator oralariga ishlav bersa bo'ldi. Oyiga ikki million so'm oylik beraman, yil oxirida ikki tonna bug'doy oladi, sigi buzog'i uchun besh yuzta press somon bera-man, ma'qul bo'lsa, kelsin.

- Umringdan baraka top, bolam, tuproq olsang, oltin bo'lsin - Hoshim buva fermerni duo qilib, uyiga qaytdi.

Taniqul divanga cho'zilib, televizor ko'rди. Otasi o'zidan beso'rog ish topib kelganiqa ensasi qotib, to'ng'iladi.

- Arzimagan haq uchun ertadan kechgacha quyosh tig'ida jizg'anak bo'lib, traktorni tarillatib, g'o'za qatorini sanaymamni? Bir og'iz so'rasangiz bo'lardi-ku, ota. Kecha chetdan ish topib beradigan kishi bilan gaplashidim, 5-6 kishini to'plagan dan keyin jo'natar ekan. Pulini o'sha yodqa ishlav bersak ham bo'lar ekan. Sizga fermer va'da qilgan pulni bir kunda toparkanman, bir yil ishlasmam, dang'illama uy qurib, mashina olarkanman.

- Eh, qaysar, nodon o'g'lim-a! Shu gaplarga ishondingmi? Uzoq-ni donidan yaqinining somoni afzal devishgan, bu fikringdan qayt. Meni o'yamasang ham oilangni, bolala-



ringni o'yla!
- Xavotir olmang, ota, u odam aldamaydi, surishtirdim, o'tgan yili narigi qishloqdan bir-ikkita yigitlarni ishga olib borib qo'yan ekan, milioner bo'lib ketishibdi.
Xullas, Taniqul chetga ketadigan bo'ldi. Va'da bera bora kishi To'rabeck degan odam ekan. U Taniqul bilan yana to'rt yigitning hujjalarni yig'ib, o'z hisobidan samolyotga chipta olib keldi. Rossiyaning olis Chita shahriga uchib kelishdi.
Keyin kutib turgan mashinaga o'tqazib, uzoq yo'li yurishgach, kimsa-siz o'rmonga boshlab bordi.

- Daraxt kesasiz, mana bu vagon uyda turasiz, uylaringga o'zim xabar berib qo'yaman. Hozircha hujjalat-ring menda turadi. Ishlab, qarzlarining uzganlaridandan keyin olasizlar, - dedi To'rabeck. - Nima kamchilik bo'lsa, mana bu Fedyaga aytasiz, endi u sizlarga xo'jayin. Mabodo qochishni xayollaringga keltirmanglar, bu bepoyon o'rmonning atrofida ming chaqirimda yirtqich hayvonlardan

Taniqul og'ir mehnatga dosh berolmay, kasal bo'lib qoldi. Bir haftacha to'xtovsiz yo'talib, isitmab malab yotdi, sal o'ziga kelgach, Fedyaga ilijo qildi.

- Xo'jayin, To'rabeckka xabar qiling, ahvolim og'ir, meni olib ketsin. Boshqa chiday olmayman.

- Nima? - Fedyaga unga yovqarash qildi. - U senlarni menga sobit ket-gan, qarzlarining uzmagunlaringcha maosh olishni, qaytib ketishni xayol-laringga ham keltirmanglar. Aks holda...

Oradan olti oylaricha vaqt o'tdi. O'g'lidan xabar kutib, holdan toy-gan Hoshim buva tuman ichki ishlar bo'limiga murojaat qilishga majbur bo'ldi.

- Otaxon, siz xavotir olmang, - dedi boshliq taskin berib. - Aftidan o'g'lingiz pixini yorgan firibgarlar qarmog'iga ilingan ko'rindi. Aniqlab, albatta, uning daragini topamiz. Ke-cha sodda odamlarga o'zini To'rabeck deb tanishdirib, ularni chetga sotgan odamfurush qo'iga olindi.

Tog'aymurod SHOMURODOV.

MUASSIS: Samarcand viloyati hokimligi

Bosh muharrir: Farmon TOSHEV

Gazeta O'zbekiston matbuot va axborot agentligining Samarcand viloyat boshqarmasida 2012-yil 30-martda 09-01 raqam bilan ro'yxatga olingan. Nashr 100. Indeks 438. 16 342 nusxada chop etildi. Buyurtma 628. Hajmi 2 bosma taboq, bichimi A-2

QABULXONA: (66) 233-91-51, **REKLAMA VA E'LONLAR:** (66) 233-91-56

BO'LIMLAR: (66) 233-91-57, 233-91-58, 233-91-59, 233-91-61

MANZILIMIZ: 140100, Samarcand shahri, Ulug' Tursunov ko'chasi, 80-uy, Matbuot uyi.

Gazeta «Zarafshon» tahririyatining kompyuter bo'limida sahilalandi.

«Noshir lux» MCHJ

bosmaxonasida chop etildi.

Korxona manzili: Samarcand shahri, Spitamen ko'chasi, 270-uy.

Bosishga topshirish vaqt:

soat 18:30 da.

Bosishga topshirildi:

soat 19:00

Navbatchi muharrir:

A.SHERZOLOV.

Navbatchi: